

**TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOY TARMOQLARDANFOYDALANISH**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabalari*

**Bayrambayeva Ayjahan**

**Karimova Dilnura**

*3-L guruh talabasi*

**Erejepova Gulmiyra**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ijobiy va salbiy ahamiyati, ijtimoiy tarmoq atamasining shakllanishi, dars jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ijtimoiy tarmoq atamasi, ta'lim, texnologiya, internet, Telegramm, Twitter, Fasebook, konsepsiya, pedagog, o'quvchi*

Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish masalasiga to'xtalishdan oldin ijtimoiy tarmoq atamasiga izoh berib o'tamiz. "Ijtimoiy tarmoq" atamasi internetning kelishi va aslida zamonaviy Internet tarmoqlari, 1954-yilda Manneder Maktabining sotsiolog olimi Jeyms Barns tomonidan kiritilgan. Zamonaviy konsepsiya oddiy shaklda, o'zi - ijtimoiy tarmoqning markazi bo'lgan odamning tanishlari doirasi, uning tanishlari - ushbu ijtimoiy tarmoqning filiallari va bu odamlar o'rtasidagi munosabatlar ulanishidir. Agar biz ijtimoiy tarmoqni chuqurroq ko'rib chiqsak, uni havolalarni turlarga ajratish: bir tomonlama va ikki tomonlama; Do'stlar, hamkasblar, sinfdoshlar, sinfdoshlar va boshqalar tarmoqlari kabilarni o'rganib olamiz.

Bugungi kunda aksariyat pedagoglar va ta'lim oluvchilar ijtimoiy tarmoqlar va media tarmoqlar foydalanuvchilari hisoblanadi. Ijtimoiy medianing ijtimoiy madaniyatdagi o'rni va rolini mazkur bobda to'liq yoritish imkoniyati mavjud emas. Lekin ta'lim jarayonida yoki pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatini to'g'ridan to'g'ri qo'llash yoki ularning imkoniyatlarini jarayonga joriy etish maqsadga muvofiq emas. Ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarini hisobga olib, ularni ta'lim jarayoniga qo'llash uchun ma'lum qoidalarga rioya etish zarur deb topiladi.

Ijtimoiy media tarmoqlar evolyutsiyasiga nazar soladigan bo'lsak, mazkur tarmoqlarni ta'lim jarayonida qo'llash uchun ularning interaktivligini oshirish va o'zaro hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda katta ishlar olib borilgan. Shunga qaramasdan, ijtimoiy medianing bir qismi hisoblanuvchi blog va boshqa shu kabi media tarmoqlardan foydalanish har doim ham ta'lim maqsadiga erishish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini bermaydi. Men kuzatishlarim natijasida shunday xulosaga keldimki, ijtimoiy medialar ta'lim jarayoniga qo'llanilganda bu texnologiya tasavvur qilganimizdek imkoniyatlari keng emas. Masalan, pedagoglar ta'lim oluvchilar bilan muloqot qilish va

belgilangan muddatda xabar topishlari uchun Telegrammdan foydalanishlari mumkin. Lekin bu holatda Telegramm axborot yetkazish uchun transport vazifasini bajaradi, xolos, xuddi shu amalni elektron pochta orqali ham amalga oshirish mumkin.

Ijtimoiy media hamkorlikda ishlash va faoliyat olib borish uchun juda keng imkoniyatlarni taqdim etish bilan birga ma'lum ma'noda foydalanuvchilar uchun turli xil xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, Twitter tarmog'idagi ma'lum bir qoldirilgan xabar yoki video qator uchun ta'lim oluvchi o'zining fikrini bayon etdi deylik, mazkur xizmat imkoniyatlari shu xabar yozilgan xeshtegni uzoq yillar davomida saqlaydi va qidirish imkoniyatlari ishga tushirilganda shu ma'lumotni va kim tomonidan nashr etilganini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida ta'lim oluvchining keyingi hayotiga ta'sirini o'tkazishi mumkin. Misol uchun, pedagog tomonidan "dars jarayonida terrorizm haqidagi fikringiz" degan ijodiy topshiriq berildi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrlarini Twitterda bayon qildilar. Xo'sh, mazkur servis ochiq servis turlaridan biri hisoblanadi va unda qoldirilgan tvitlar bir necha yillardan so'ng ham o'qilishi yoki ko'rilishi mumkin. Bu esa bir qancha salbiy ko'z-qarashlarga asos bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlari bilan bjr qatorda ijobiy tomonlari ham.yo'q emas. Ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtoqli, ahamiyatli jihatlaridan biri – ilm olish, kasb-hunar o'rganishdagi beqiyos yordamidir. Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o'zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog'idagi kanallardan bemalol o'zlashtira oladi Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo'lgan fan yo'nalishlari bo'yicha ham istalgancha videodarslar, qo'llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta'lim olish uchun imkoniyat eshiklarini juda keng ochgan. Bu nafaqat ilm olish, balki ilm tarqatishda ham qo'l keladi. Turli soha mutaxassislari o'z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi, virtual o'quvchilar yig'ishi mumkin. Ular kun kelib bu mutaxassisning hayotdagi real talabalariga aylanishi ehtimoli ham yuqori. Bundan tashqari, obunachilari ko'p va videolari namoyishi yuqori kanal egalari reklama orqali qo'shimcha daromadga ega bo'la oladi. Jahonda ayni shu yo'nalishda millionerga aylangan bloger va vlogerlar juda ko'p.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, ijtimoiy tarmoqlarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli juda katta, agarda biz internetdan to'g'ri foydalana olsak. Agar no'to'g'ri foydalansak bu bizga faqat zarar yetkazadi, xolos. Internetdan foydalanganda muomala madaniyatiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Negaki biz ijtimoiy tarmoqlarda suhbat qurayotganimizda vertual suhbatdoshimizning kimligi, yoshi, jinsini va millatini bilmasligimiz mumkin. Shuning uchun, iloji boricha o'zimizni turli xavf-xatarlardan himoyalab, ijtimoiy tarmoqlardan o'rinli foydalanishimiz darkor.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. N.Egamberdieva Tarbiya texnologiyasi Fan va texnologiyalar 2016-yil
3. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanmaT.:Fan va texnologiya 2012-yil
4. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil
5. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi. 2004-yil
6. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.T.: 2009-yil.